



VOKAL SAN'ATI BO'LAJAK MUTAHASISLARIDA IJROCHILIK MAHORATINI SHAKLLANTIRISH JARAYONLARIDA AMALIY VA NAZARIY BILIMLAR HAMOHANGLIGI

Xayitova Dilnoza

Guliston davlat universiteti 3-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar : Akbarova Mohigul Gulomovna

Guliston davlat universiteti o 'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada vokal san'ati bo 'lajak mutahasislarida ijrochilik mahoratini shakllantirish jarayonlarida amaliy va nazariy bilimlarning hamkrligida olib borilgan mashg 'ulotlar, amaliy ishlarning samarasi hamda tahlillar natijasida yuzaga kelgan ilmiy muammolarga yechimlar hususida so 'z yuritiladi.

Kalit so 'zlar: Vokal san'ati, ijrochi, pedagog, amaliy va nazariy bilimlar, alamiy tahlil, ijrochilik ko'nikmasi, mahorat, qobiliyat, ijodkor.

Annotation: This article talks about the results of practical work and the solutions to the scientific problems that arose as a result of the exercises conducted in cooperation with practical and theoretical knowledge in the processes of formation of performance skills in future specialists of vocal art.

Key words: Vocal art, performer, pedagogue, practical and theoretical knowledge, scientific analysis, performance skills, skill, ability, creator.

Yurtimizda ijrochilik san'atida ta'lif tizimini yangilanishi, yangi maqsad va vazifalar talabalardan o'quv bilim va ko'nikmalarini yanada ongli ravishda o'zlashtirishni talab qiladi, ular orasida vokal va musiqiy eshitish qobiliyatini asosiy o'rinni egallaydi. Vokal pedagogik amaliyotni ilmiy asoslashga urinishlar qadimgi italyan maktabi mavjud bo'lgan vaqtidan beri uzoq vaqt davomida amalga oshirildi, biroq vocal metodologiyasiga oid ko'pchilik mahalliy va xorijiy ilmiy ishlarda qo'shiqchilik san'atining izchil ilmiy asoslangan nazariyasi berilmagan. Xonanda talabalarni rivojlantirish va tarbiyalash, ularning ijro mahoratini oshirish muammosiga bugungi kunda musiqashunoslik va pedagogikada katta e'tibor qaratilmoqda.

Talabalarni boshidanoq uning qo'shiq aytishiga, ovozli xotira va eshitishda qayd etilishi kerak bo'lgan tebranish, mushak, turli jismoniy va intellektual his-tuyg'ularini kuzatishga o'rgatish kerak. Talaba o'z qo'shiqchiliga baho berishni, kamchiliklarni tuzatishni o'rganishi kerak. Ovoz hosil bo'lish paytidagi harakatlarning umumiy majmuasidan tovush hujumi aniq farqlanadi. Ovoz chiqarganda uni eshitish, rezonator, nafas olish va boshqa sezgilar yordamida boshqarish oson. Qismlar ustida ishslash o'z-o'zidan maqsad bo'lib qolmasligi kerak.

Talabani vokal va musiqiy eshitish qobiliyatini shakllantirish jarayonini shartli ravishda uch bosqichga bo'lish mumkin.

- Birinchi bosqich - ovoz apparatining to'g'ri ovoz faolligini, ba'zi unlilarda va ovoz diapazonining cheklangan qismida to'g'ri tovush hosil bo'lishini topish.
- Ikkinci bosqich - vokal va musiqiy eshitish qobiliyatlarini saqlash va takomillashtirish, har xil turdag'i tovush yo'naltirishni o'zlashtirish, ovoz apparatining to'g'ri tamoyillarini butun diapazonga o'tkazish.
- Uchinchi bosqich - avtomatlashtirish, silliqlash va ish uchun ko'plab variantlarni topish. Bu avtomatizmga olib keladigan to'g'ri tovush hosil qilinishi va yo'naltirilishi bosqichi, ovoz apparatining to'liq "erkinligi" va ovozni to'g'ri tovush yo'naltirilishi chegarasida o'zgartirish qobiliyatidir.



Qo'shiq aytishni o'rgatish tushuntirishlar bilan boshlanadi: nafas olish, tovush xujumi, tovush hosil qilish va hokazo. Shunda talaba nima qilishi kerakligi haqida ma'lum bir tajriba yoki g'oyaga ega bo'ladi. Bularning barchasi tovush tasvirini shakllanishi uchun muhimdir. Bu davrda talaba o'z-o'zini nazorat qilish qobiliyati yetarlicha rivojlanmaganligi sababli, o'qituvchi kuylab tushuntirishi alohida ahamiyatga ega.¹

Vokal san'atida ijrochilik malakalarni shakllantirishda tovushning boshlanish nuqtasi katta ahamiyatga ega. Birinchi darslardanoq talabaning e'tiborini tovushning boshlanishiga, ya'ni nafas olish jarayonlariga, nafasni ushlab turish, nafasni tejash uni to 'g 'ri taqsimlashga qaratish kerak. Har bir keyingi bosqich avvalgisidan ko'ra qiyinroq bo'lishi va unga asoslanishi kerak. Har bir vazifa qiyinroq bo'lishi yoki talaba qanday qilishni biladigan yangi versiyasi bo'lishi kerak. Qo'shiq ovozini rivojlantirishning dastlabki bosqichi talaba uchun eng qiyin, shuning uchun vaqt talab etadi. Ayni shu jarayonlarni talabalar ustoz nutqi, maruzalari, ilmiy kitoblardan o'qib eshitib ma'lum bir malumotlarga ega bo'ladilar biroq, bu yetarli emas ular bu kabi jarayonlarni har kuni bosqichma bosqich amalda takrorlashlari va o'z tanalarida ijro instingini shakllantirishlari shart. Bu kabi jarayonlar albatta ustozlar nazoratida bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Sababi talaba ijro jarayonida o'zi mashg 'ulotlarni bajara turib bir bora hatoga yo 'l qo 'ysa , har gal ushbu hatoga yuzlanaveradi. Keyingi darslarda shakllangan vokal va musiqiy eshitish qobiliyatni saqlab qolishga alohida e'tibor berish kerak. Ushbu jarayonlarda o'qituvchining doimiy ko'rsatmalari, to'g'ri tovush hosil qilish sifatiga erishish, qo'llanilishi kerak bo'lgan usullarni o'zlashtirish zarur. Shunday qilib, vokal san'atida ijrochi eshitish qobiliyatini rivojlantirish va shakllantirish muammosi har doim vokal o'qituvchilari oldida turgan, nazariyani va o'qitish usullarini takomillashtirish masalalari doimo dolzarb bo'lib qoladi. Ular doimiy ravishda amaliyotchi - pedagog va tadqiqotchilarning diqqat markazida bo'ladi. Ularni hal etishning hozirgi bosqichdagi ahamiyati ham umumiy tarzda ta'kidlangan. Ijrochilik qobiliyatini rivojlantirish jarayoni murakkab va ko'p vaqtini talab qiladi. Vokal san'atida ijro qobiliyatini shakllantirish o'qituvchi oldida turgan eng asosiy vazifalardan biridir. Talabaning kasbiy mahorati, uning ijodiy kamoloti va kelajagi ana shunday mahoratlarni o'zlashtirishga bog'liq.

Vokal darslarida o'qituvchi va talabaning o'quv jarayonidagi pedagogik muloqoti, ular faoliyatidagi ijodiy muhit va tarbiya kabi muhim omillarni tahlil qilish zarurati tug'iladi. Turli pedagogik vaziyatlar ya"ni boshlang'ich vocal ko"nikmalarining shakllanish jarayonida talaba va o'qituvchi o'rtasidagi o'zaro munosabatlar jarayonida har doim ham ijodiy aloqa yuzaga kelavermaydi. Tushunish va tushuntita olish bunga asosiy sababdir. Vokal darslarida talabalarning o'zlashtirish daraja va ko'rsatgichlari turlicha bo 'lganliklari sababli har bir dars jarayonlari pedagog tomonidan turlicha yondashuvlar asosida olib borsagina ijodiy muhitni yuzaga keltira oladi. Vokal san'atini mutaxassislik tarzida o'rganuvchilar uchun bu amaliyot odatiy holdir. Boshlang"ich musiqiy bazasi bo'limgan talabalar uchun mashg'ulotlar sharoitida shunday vaziyat yuzaga keladiki, ba'zi talabalar o'zlariga berilgan vokal va texnik vazifalarni har doim ham tushunmaydilar, ko'p hollarda o'z ta'limning pirovard maqsadini ko'ra olmaydilar. Natijada, talabalarga to'g'ri ijrochilik vokal san'ati yetishib bo 'lmaydigan murakkab jarayonday tushuncha hosil qiladi. Bunda o'qituvchining mashaqqatli mehnati ta'limning dastlabki bosqichidayoq to 'g 'ri pedagogik ta'lim berish mahratida o'z ifodasini topadi.

O'qituvchi tomonidan katta odob saqlagan holda badiiy pedagogik manba tayyorlash talab etiladi. Manbalarni musiqiy, vokal - texnik va ijro qiyinchiliklarini e'tiborga olib tahlil etish-o'qituvchining zaruriy sifati hisoblanadi. Keng ko'lamli musiqiy pedagogik manbalarni egallash va ularni qo'llay bilish-pedagogik faoliyat muvaffaqiyati talablaridan biri. Murakkab texnik muammolarni bartaraf etish jarayonida o'qituvchi va talaba

¹ Oydin Alibekova UzDSMI o'qituvchisi. O'QUV JARAYONIDA VOKAL VA MUSIQIY ESHITISH QOBILIYATLARNI SHAKLLANTIRISH1. SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL 2022.



kommunikativ o'zaro ta'sirning yangi usullarini topishi zarur. Vokal san 'atida ijro ko 'nikmasini o 'rganish talabaning uy vazifasi hisoblanadi. Murakkab uslubiy iboralarni sinfda ularni fortepiano jo,,rligida bosiq tempda ijro etish orqali mashq qilinadi. Asarlarni kuylash jarayoni qo'shiqning she'riy matnini ovoz orqali yetkizib berilishi bilan tavsiflanadi. Shularni hisobga olgan holda, material ustidagi asosiy ish talabalarda ijrochilik madaniyatini shakllantirishga bag,,ishlangan bo"lishiga qaratiladi.

Bugungi kunda jamiyat uchun butunlay yangi qiyofadagi mustaqil fikrlovchi, ijodiy izlanuvchi, yuksak kasbiy mahorat va intellektual, ilmiy salohiyatga ega bo,,lgan yetuk mutaxassisiga bo 'lган talab tobora oshib bormoqda. Umumiyl olib qaraganda har bir javhada kasbiy kompetensiya masalasida dunyo pedagoglari tajribasini tatbiq qilish yoki an'anaviy o 'zbek pedagogikasi me'yorlaridan kelib chiqqan holda kompetensiya mezonlarini belgilashda fikrlar xilma-xil bo,,lib, hali echilmagan masalalar talaygina. Ushbu sohada avvalo edagogik kompetensiya jarayonida Ustoz –shogird an'analarini alohida aytib o'tish va aynan ushbu so'zga kata urg'u berish lozim. Boshqa sohalardan farqli o'laroq Vokal san'ati. An'anaviy honandalik yo'nalishi ummummilli urf odatlar, an'analar, nasriy qadryatlar, mmilliy madaniy merosimizning amalda mavjud dddurdonalari asosida tarbiyalanadi. Avvalo ushbu soha vakillari musiqiy merosimizning amaliy jihatlarini va shu bilan birga nazariy jihatlarini ustozlaridan eshitish, tushunish va o'zlarida amaliy tahlil qilish jarayoni orqali pedagogic ko'nikmalarga ega bo'ladilar. Biz san'atning qaysi bir sohasi bo'lmasin umumiy jihatni avval aniqlaymiz va shu jihatlarni talabaga singdiramiz. Q²anday sohada bo 'lmasin, davlatimiz fan, ilm taraqqiyoti yo 'lida ishlab chiqilgan bir qator kompetensiyalar majmuida belgilangan mezonlariga javob berishi shart.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Pirmatov SH. Vokal texnikasi asoslari. Toshkent – Turon. 2011 yil
2. D.Uzoqov Vokal o'quv qo'llanma Toshkent 2020 yil
3. . Erkin Rahimov, Vokal, Toshkent, "Barkamol fayz media", 2017 yil
4. An'anaviy xonandalik yo'nalishi bo'lajak mutahasislariga bilim berishda pedagogik kompetensiyalar Moxigul Gulomovna Akbarova "Oriental Art and Culture" Scientific Methodical Journal / ISSN 2181-063X Volume 3 Issue 4 / December 2022
5. ARTSAkbarova Mohigul Gulomovna BRIEF RECOMMENDATIONS AND SCIENTIFIC CONCLUSION FOR STUDENTS STUDYING Interdiscipline innovation and scientific research conference British International Science Conference Page 87 2022 year.
6. PEDAGOGICAL RECOMMENDATIONS THAT STUDENTS WILL NEED IN THE PROCESS OF TEACHING VOCAL ART Mohigul Akbarova. Konurova Leyla. Journal article // [Academicia Globe](#) 2021 year

² <https://doi.org/10.5281/zenodo.6625671>